KICHIK VA O‘RTA BIZNES: IQTISODIY O‘SISH TAYANCHI.

Xudoykulov Xusniddin Ziyadullayevich.
SamISI Bank ishi” kafedrasi o‘qituvchishi.

Rustamov Diyorbek Nurali o’g’li
Bank ishi-320 guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada kichik va o‘rta tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash orqali mamlakatimizning iqtisodiy salohiyatini oshirish, uy xo‘jaliklari daromadlarini ko’paytirish va ishsizlikka qarshi kurashish imkoniyatlarini kengaytirishga alohida e’tibor qaratilgan. Taklif etilayotgan chora-tadbirlar milliy iqtisodiyotning farovonligi va barqarorligini oshirish, yangi ish o‘rinlari yaratish va fuqarolar hayotini yaxshilash borasida xulosalar, tavsiya va takliflar, fikrlar yuritiladi.

Tayanch iboralar: kichik biznes, tadbirkorlik, investitsiya, biznesni yuritish, bank, oilaviy tadbirkor, mikrobiznes.

Abstract: In this article, special attention is paid to increasing the economic potential of our country, increasing the income of households and expanding the possibilities of fighting unemployment by supporting small and medium entrepreneurship. Conclusions, recommendations and suggestions, opinions are held regarding the proposed measures to increase the well-being and stability of the national economy, create new jobs and improve the lives of citizens.

Keywords: small business, entrepreneurship, investment, running a business, banking, family entrepreneur, microbusiness.

Yangi texnologiyalarning yetakchi tarmoqlarga faol joriy etilayotganini, ular kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarida ham o‘z o‘rnini topayotganini ko‘rmoqdamiz. Bu ishlab chiqarishni doimiy ravishda kengaytirish va yangi g'oyalarni joriy etishga intilishdan dalolat beradi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarida yangi imkoniyatlarni joriy etish hozirgi zamon taraqqiyotining ajralmas tarkibiy qismi bo‘lib,

tashkilotlar faoliyati samaradorligi va raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Bugungi kunga kelib, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub`ektlari mamlakatimiz iqtisodiyotining barcha jabhalarida, mashinasozlik mahsulotlari ishlab chiqarishda, xalq iste`moli mollarini, qishloq xo`jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishda hamda boshqa sohalarda faoliyat ko`rsatmoqda.

Aholi va tadbirkorlik sub'ektlarini o'qitish orqali ularning biznes tashabbuslarini moliyaviy va konsultativ qo'llab-quvvatlash tizimi yo'lga qo'yiladi va "oilaviy tadbirkor - mikrobiznes – kichik biznes – o'rta biznes" zanjiri asosida ularning faoliyatini kengaytirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratiladi.

Bu borada Aholini kichik va o'rta biznesga keng jalb qilishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»gi Prezident qarori PQ-366-son qabul qilindi.

Dastur doirasida tadbirkorlarga quyidagi imtiyozlar beriladi.

- kamida bir yil mobaynida faoliyat yuritayotgan yakka tartibdagi tadbirkorlar, dehqon xo'jaliklari, o'zini o'zi band qilgan shaxslar, hunarmandlar, kasanachilar, nodavlat ta'lim tashkilotlari, uch va undan ortiq kishini doimiy ish bilan ta'minlayotgan kichik tadbirkorlik sub'ektlari;
- oilaviy tadbirkorlik dasturlari doirasida o'z biznes loyihalarini muvaffaqiyatli amalga oshirib, ijobiy kredit tarixiga ega bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslar onlayn ariza yuborish orqali ishtirok etish huquqiga ega bo'ladi.

moliyaviy qo'llab-quvvatlash yo'nalishida:

- 2 yil imtiyozli davr bilan 7 yilgacha, aylanma mablag'lar uchun revolver tarzda 3 yilgacha muddatga
- foiz stavkasi (Markaziy bank asosiy stavkasi + 4)
- 1,5 milliard so'mgacha kreditlar ajratish yoki asosiy vositalarni sotib olish uchun lizing berish. Bunda, 100 million so'mgacha kreditlarni garovsiz,

150 million so‘mgacha kreditlarni garov talabi 50 foizgacha pasaytirilgan holda ajratish imkoniyati nazarda tutiladi

- qiymati 1,5 milliard so‘mgacha bo‘lgan asosiy vositalarni 7 yilgacha bo‘lib-bo‘lib to‘lash sharti bilan qarzga beradi
- innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirish, yuqori texnologik startap loyihalariga davlat ilmiy dasturlari doirasida 2 milliard so‘mgacha grant mablag‘larini ajratadi.

konsultativ qo‘llab-quvvatlash yo‘nalishida:

- litsenziya, ruxsatnoma va sertifikatlar olish masalalari, bojxona va soliq ma’muriyatchiligi, eksport va import operatsiyalari, shartnomalarni rasmiylashtirish;
- davlat xaridlarida ishtirok etish, shuningdek, yer uchastkalari va bino-inshootlarni sotib olish yoki ijaraga olish va loyihalashtirish;
- tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amaldagi imtiyoz va preferensiyalar, mavjud boshqa yengilliklar va imkoniyatlar bo‘yicha ma’lumot va maslahatlar berish ishlari amalga oshiradi.

Qarorda ko’zda tutilgan kafillik va konpensatsiyalar kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yangi marralarni egallashga o’z hissasini qo’shishi ta’biiy.

Berilgan imkoniyatlarni amalda samarasini yanada ko’paytirish maqsadida quyidsagi takliflarni tavsiya etiladi:

- Davlatning veb-saytlarini kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ma’lumotlar bazasini yaratish uchun tashabbus ko‘rsatish kerak. Bu kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning jahon bozoriga kirishidagi to‘siqlarni kamaytiradi;
- Malakali kadrlarni saqlashni ta’minlash uchun hukumat noaniqlikni minimallashtirish yo‘li bilan tadbirkorlarni professional jihatdan o‘ziga jalb qilishi kerak;

Ayollar tadbirkorligini rag‘batlantirish maqsadida, ayollar tadbirkorlarini siyosatni shakllantirish va joriy etishga jalb qilish. Ayol tadbirkorlariga mablag‘

ajratish. O‘zbekiston qishloq va shahar hududida ayollar tadbirkorlariga zaruriy ta’lim berish;

Tadbirkorlik sub’ektlarining moliyaviy xizmatlarga bo‘lgan talabini inobatga olgan holda hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni moliyalashtirishni, aholi bandligi va farovonligini oshirishning g‘oyat muhim vositasi sifatida Respublika hududlari bo‘yicha ko‘rsatiladigan mikromoliyaviy xizmatlar ko‘lamini hamda hajmini yanada oshirish;

- Ishsizlik darajasi yuqori bo‘lgan hududlarga katta e’tibor qaratgan holda mikromoliyaviy sarmoyalarni yo‘naltirish va aholining ish bilan bandligini ta’minlash;

- Imtiyozli mikromoliyaviy resurslar samaradorligini ta’minlash maqsadida, banklar mikromoliyaviy va chakana xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarida yengilliklar yaratib berish borasidagi ishlarni doimiy ravishda takomillashtirib borishi lozim;

- Banklarni boshqarishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ko‘lamini yanada oshirish, bank filiallari va bo‘linmalari bilan qog‘ozsiz ma’lumot almashinuvini yo‘lga qo‘yish, axborot-texnologiyalarini va dasturiy ta’minotni takomillashtirib borish.

Xulosa.

Aksariyat mamlakatlarda anchadan beri muvaffaqiyatli faoliyat yuritib kelayotgan kafolat fondlari kichik va o‘rta korxonalarga kredit olishi uchun ta’minot taqdim etib, bank va boshqa kredit resurslaridan faol foydalanishiga sharoit yaratib kelmoqda. Bu tajriba kichik biznesning amaldagi sub’ektlarini nafaqat qo‘llab-quvvatlamoqda, balki yangi korxonalarning paydo bo‘lishini rag‘batlantiradi.

Hududlar rivojlanishida kichik va o‘rta biznes geografiyasini kengaytirish orqali katta samaradorlikka erishishimiz mumkin. Shuningdek, ishchi kuchini qo‘nimsizlik muammosiga nisbatan yumshatilishiga imkon yaratiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ўзбекистон Республикасининг “Тадбиркорлик фаолияти эркинлигининг кафолатлари тўғрисида”ги Қонуни. – Т.: “Ўзбекистон”, 2000 й. 15 июнь. 51 модда. http://lex.uz/docs/31846 8-модда.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 31 январдаги “Кичик ва хусусий тадбиркорликни микрокредитлаш тизимини янада кенгайтириш ва соддалаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-2746-сонли Қарори.

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Банк хизматлари оммабоплигини ошириш бўйича чора-тадбирлар тўғрисида”ги 2018 йил 23 мартдаги ПҚ 3620 сонли Қарори.

4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 17 ноябрдаги “Ҳунармандчиликни янада ривожлантириш ва ҳунармандларни ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5242-сонли Фармони.

5. Ўзбекистон Республикасининг “Тадбиркорлик фаолияти эркинлигининг кафолатлари тўғрисида”ги Қонуни. – Т.: “Ўзбекистон”, 2000 й. 15 июнь. 51 модда. http://lex.uz/docs/31846 8-модда.

6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Банк хизматлари оммабоплигини ошириш бўйича чора-тадбирлар тўғрисида”ги 2018 йил 23 мартдаги ПҚ 3620 сонли Қарори. https://lex.uz/docs/3593541

7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 15 ноябрдаги “Аҳолини кичик ва ўрта бизнесга кенг жалб қилишнинг қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида”gi ПҚ-366-сонли Қарори. https://lex.uz/docs/6663044

8. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 17 ноябрдаги “Ҳунармандчиликни янада ривожлантириш ва ҳунармандларни ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5242-сонли Фармони.

9. Bekmurodov A. A. IMPROVING THE INTRODUCTION OF

DIGITAL TECHNOLOGIES IN COMMERCIAL BANKS //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2021. – Т. 9. – №. 10. – С. 355-357.

10. Amriddinovich B. A. Features of api services in the implementation of transformational processes in the activities of commercial banks //World Economics and Finance Bulletin. – 2022. – Т. 7. – С. 27-31

11. Bekmurodov, A. A. "KICHIK BIZNES SUB'EKTLARINI TIJORAT BANKLAR TOMONIDAN KREDITLASHDA XORIJ TAJRIBASI." Теория и практика современной науки 6 (96) (2023): 20-24.